

Talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishining tizimli-funksional modeli

Sh.T.Maxmudov

B.A.Akbarov

NamMQI

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabaarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar va yangi pedagogik izlanishlardan samarali tarzda foydalanish, yangi g'oyalar orqali odamlar hayotini yaxshilash, insonlar va imkoniyatlarni bir-biri bilan bog'lash, ya'ni uyg'unlikka keltirish, talabalar faoliyatini tashkil etish mexanizmi va tartib-qoidalarini aniqlash, o'rganilayotgan hodisadan amaliy foydalanishning o'ziga xosliklari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, kreativ fikrlash, metodologik, ko'nikma, innovatsiya, model, aksiologik, refleksiv

Systemic-functional model of development of creative thinking skills in students

Sh.T.Makhmudov

B.A.Akbarov

NamECI

Abstract: In this article, the effective use of innovative technologies, interactive methods and new pedagogical research in the development of students' creative skills, improving people's lives through new ideas, connecting people and opportunities, that is, bringing them into harmony, defining the mechanism and procedures for organizing students' activities, the specifics of the practical use of the studied phenomenon are discussed.

Keywords: creativity, creative thinking, methodological, skill, innovation, model, axiological, reflexive

Bugungi kunda talabalarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar va yangi pedagogik izlanishlardan samarali tarzda foydalanishni zarurati yuzaga kelmoqda. Talabalarda ijodkorlik sifatlarini shakllantirish inson intellektual, ma'naviy, jismoniy va ruhiy potensialining maqsadli yo'naltirilishini talab etadi. Shu bois, mazkur tadqiqot ishi doirasida

talabalarda "Kreativ fikrlash" fani orqali ijodkorlik ko'nikmalarini inson salohiyati, yuksak tafakkuri, istedad va qobiliyatlari, hissiyot, kechinmalari, noodatiy qarorlari, tanqidiy qarashlari, mulohazalari orqali shaklanishini asoslashdan iborat.

Pedagogika fanlari doirasida olib boriladigan tadqiqot ishida qo'yilgan maqsadga erishishning muhim vositalaridan biri modellashtirishdir. Modellashtirish asosida tadqiq etilayotgan obyekt modeli ishlab chiqiladi. Mazkur tadqiqot ishida pedagogika fanlari doirasida "model" tushunchasiga berilgan ta'rifga tayandik. Ya'ni, "model ma'lum bir obyekt haqida yangi axborotlar olish imkonini beruvchi, tadqiqot premetini ilmiy jihatdan aks ettiruvchi fikriy tasavvur yoki uning moddiy ko'rinishga ega tizimidir" [1]. Biroq bugungi kunda model har bir sohaga nisbatan ishlatilayotganligi va uning qamrovi kengayib borayotganligi uchun uning mazmuni o'zgarib bormoqda.

Kreativ, tizimli-funksional modelni ishlab chiqish maqsad sifatida belgilandi. Modelning mazkur turi "Kreativ fikrlash" fani asosida talabalarda ijodkorlik sifatlarini shakllantirish jarayonini tashkil etish vositalarini izlab topish, shuningdek, model subyekti sifatida talabalarning tayyorgarlik darajasining boshlang'ich va yakuniy holati o'rtasidagi farqqa erishishga imkon beruvchi tadqiq etilayotgan jarayonlarni boshqarish funksiyalarini aks ettirishga yordam beradi.

Modellashtirish obyekt sifatida talabalarda kreativlik sifatlarini va ko'nikmalarni tarkib toptirish jarayoni, predmetini esa, ularda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish mazmuni va metodik tizimi tashkil etdi.

Talab etilayotgan pedagogik tizimni modellashtirishda quyidagi funksiyalarning bajarilishi ko'zda tutildi:

- metodologik ta'minot funksiyasi. Mazkur funksiyani amalga oshirish me'yoriy-huquqiy hujjatlar va talabalarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishning nazariy asoslarini belgilab beruvchi ijtimoiy buyurtma bilan bog'liq;

- me'yoriy-huquqiy ta'minot funksiyasi. Bu orqali ta'lim tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlar hamda diagnostik vositalar aniqlashtiriladi hamda samaradorligi belgilanadi.

- metodik ta'minot funksiyasi. Ta'lim shakllari, metodlari hamda vositalari aniqlashtiriladi.

- empirik funksiya. Mazkur funksiya qator vazifalarni hal etishga imkon beradi: talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga doir bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar bilan bog'liqlikda urf-odatga yo'naltirilgan ustanovka va barqaror motivlarni shakllantirish, tadqiq etilayotgan jarayonni tahlil etish va muayyan tuzatishlar kiritish; natijalarni baholash va tahlil etish va h.k.

Modellashtirishning nazariy-metodologik asosi sifatida quyidagi qoidalarga tayanildi:

tizimli, shaxsiy faoliyatga yo'naltirilgan, reflektiv yondashuvlar;	pedagogik loyihalash nazariyasi, rivojlantiruvchi ta'lim muhitini modellashtirish;	didaktik va metodik ta'minotni yaratishning nazariy asoslari;	tanqidiy fikrlashni shakllantirish va shaxsiyatni rivojlantirish konsepsiyasi;	talabalarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.
---	--	---	--	--

Modellashtirishning nazariy-metodologik asosi

“Kreativ fikrlash” fani asosida talabalarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning tizimli-funksional modeli maqsadga yo'naltirilgan, nazariy-metodologik, mazmunga doir, tashkiliy va natijaviylik komponentlarini o'zida aks ettirdi.


Maqsadga yo'naltirilgan blok talabalarda ijodkorlik sifatlarni rivojlantirish tizimining boshqa bloklari uchun yetakchi rol o'ynaydi. Mazkur blok mazmunini aniqlashtirish asosida tadqiqot sohasiga doir ta'lim standarti va ijtimoiy buyurtma, me'yoriy-huquqiy asoslar belgilab olindi. Shuningdek, modelning maqsad va vazifalari ham aniqlashtirildi. Talabalarda ijodkorlik sifatlarni rivojlantirish ijtimoiy buyurtma sifatida “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” shuningdek, boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlari orqali belgilab olindi. Talabalarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirishga doir ta'lim standartlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili ta'lim tizimida talabalarda ijodkorlik sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bilim, tajriba va amaliyot ishlarni maqbullashtirish lozimligini ko'rsatdi.

Tizimning maqsadga yo'nalganligi ma'lum natijalarga erishish bilan belgilanadi. Maqsadni aniqlashtirish ishlab chiqilayotgan tizim javob berishi lozim bo'lgan bir qator savollarga e'tibor qaratish orqali amalga oshiriladi. Talabalarda kreativlik ko'nikmalarni aniqlash muammosini muvaffaqiyatli hal etish uchun mazkur jarayonning yakuniy natijasi aniq aks ettirilishi lozim. Modelning maqsadi talabalarda kreativlik ko'nikmalarni aniqlashni “Kreativ fikrlash” fanini tizimli takomillashtirib o'qitish asosida rivojlantirish tarzida aniqlashtirildi.

Modelni ishlab chiqish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish ko'zda tutildi:

- 1) talabalarida kreativlik ko'nikmalarni aniqlash modelini ishlab chiqishga doir metodologik yondashuvlarni aniqlashtirish;
- 2) modelning blok-tuzilmasini aniqlashtirish;
- 3) model blok va elementlari o'rtasidagi aloqadorlikni ochib berish;
- 4) modelning blok-tuzilmasi va elementlariga tavsif berish.

Talabalarda krativlik ko'nikmalarni aniqlashning yuqorida ko'rsatilgan maqsad va vazifalari kompleks metodologik yondashuvlar bilan bog'liq. Talabaarida krativlik ko'nikmalarni aniqlashning samarali yondashuvlariga quyidagilarni kiritish mumkin:



Talabaarida krativlik ko'nikmalarni aniqlashning samarali yondashuvlar

- tizimli-jarayonli yondashuv tadqiqotning umumiy asosi sifatida ilmiy izlanish mantig'ini aks ettiruvchi muammoni qo'yish, asosiy va lokal maqsadlarni aniqlashtirish, qarama-qarshi fikrlar va nuqtayi nazarlarni aynanlashtiruvchi qoidalar bilan tavsiflanadi hamda talabalarda krativlik ko'nikmalarni aniqlash modelini ishlab chiqishni ta'minlaydi;


- aksiologik va refleksiv yondashuvlar qadriyatlar tizimini aniqlash hamda talabalarda ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlash tizimida qayta aloqani ta'minlashga imkon beradi;

- shaxsiy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv qo'yilgan maqsadga erishish uchun talaba faoliyatini tashkil etish mexanizmi va tartib-qoidalarini aniqlash, o'rganilayotgan hodisadan amaliy foydalanishning o'ziga xosliklarini ochib berishga amaliy yo'naltirilgan taktika sifatida namoyon bo'ladi.

Fikrimizcha, yondashuvlarni o'zaro uyg'unlikda tahlil qilish lozim. Faqatgina yondashuvlarni kompleks qo'llash talabalarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish muammosini obyektiv o'rganish imkonini beradi. Quyida mazkur metodologik yondashuvlarning mazmun-mohiyatini yoritib beramiz.

Tizimli-jarayonli yondashuv qoidalari taklif etilayotgan modelda qo'yidagicha aks etadi:

Tadqiqot obyektini yaxlit, barqaror va ichki o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tuzilma komponentlari, funksional aloqa va munosabatlar yig'indisi sifatida ifoda etish imkoniyatining mavjudligi.



Talabalarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish tizimli-jarayon bloklari

Mazkur yondashuvning ko'p qirraligi orqali boshqarish o'zaro aloqador va universal boshqaruv jarayonlari (rejalashtirish, tashkil etish, motivatsiya, nazorat va aloqador jarayonlar) majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayon metodik ta'minot (qo'llab-quvvatlash, do'stona munosabat, maslahat berish va talabalarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish)da o'z aksini topadi.

Tizimli-jarayonli yondashuvning eng yaxshi jihati, har bir jarayonning "chiqish" natijalari, "kirish" (ehtiyoj) holatiga obyektiv bog'liq ekanligida aks etadi. Ana shu tarzda mazkur jarayon va modelning barcha komponentlarining yaxlitligi hamda uzluksizligi orqali talabalarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishda fanlararo aloqadorlikka erishiladi.

Har bir metodologik yondashuv qo'yilgan maqsadni amalga oshirishga imkon beruvchi ma'lum bir tamoyillar tizimi bilan bog'liq. Tamoyil deganda pedagogik modellar, tizim kabilarni ishlab chiqish jarayoniga qo'yiladigan talablar, boshlang'ich qoidalar tushuniladi. Tamoyillar tadqiq etilayotgan yo'nalishni shakllantirishga doir obyektiv talablarni aks ettiradi.

Tadqiqot doirasida ko'rib chiqilayotgan tizimli yondashuvning asosiy tamoyili talabalarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish tizimini ham yaxlit, ham qismlar (bloklar) yig'indisi sifatida tahlil etishni talab etuvchi yaxlitlik tamoyilidir. Mazkur tamoyil tizim haqidagi yaxlit tasavvurlarni saqlab qolgan holda tahlil etishga, tizimning "ichki tuzilishiga nazar solish"ga yo'naltirilgandir. Talabalarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish modelini o'zaro aloqador blok va elementlar yig'indisidan tashkil topgan tizimi sifatida ko'rib chiqish mumkin. Mazkur tamoyil nafaqat tarbiyalanuvchining alohida xatti-harakatga munosabatini ko'rish, balki uni yaxlit olamning bir qismi sifatida alohida voqelikni idrok etishga o'rgatishga ham imkon beradi.

Tadqiqot jarayonida tizimli-jarayonli yondashuvdan talabalarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirishda keng foydalanildi. Aynan tizimli va jarayon bilan aloqador yondashuv sintezi asosida o'rganilayotgan muammoning obyektiv va to'liq manzarasini hosil qilish mumkin. U bosqichma-bosqichlik, boshqaruvchanlik va natijaviylik bilan tavsiflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida to'g'risidagi PF-60-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2022 y., 28.01. www.lex.uz.
2. Sh.Yuvashov, B.Akbarov., KREATIV FIKRLASH. O'quv qo'llanma. – Namangan, 2024. – 176 b.
3. Sherzod Yuvashov. O'quvchilarda altruistik fazilatlarni rivojlantirish texnologiyasi ("tarbiya" fani misolida) / Monografiya / "Iste'dod ziyo press" nashriyoti. – Namangan, 2023. – 116 b.
4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
5. Ulmasovich Y. S. Technological Approach to the Development of Altruistic Qualities in Pupils Today's Innovative Requirement //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 10. – C. 97-101.
6. Raupova, . M. M. (2023). PEDAGOGICAL MODEL OF DEVELOPMENT OF LEGAL COMPETENCE IN LEGAL SOCIALIZATION OF FUTURE TEACHERS. Confrencea, 6(6), 95–101.